

## MARIONETKA - IPLI QO'G'IRCHOQ

*Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi*

*Najmiddinova Sarvara Samariddinovna*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining*

*Farg'ona Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi*

*2-kurs talabalari*

*[najimiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimiddinovasarvara@gmail.com)*

*[zulfizarshakirjanovna@gmail.com](mailto:zulfizarshakirjanovna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, Chodir xayol teatrining tomoshalari va iplar yordamida boshqariladigan qo'g'irchoq, ya'ni marionetka haqida ma'lumotlar berilgan.


**Kalit so'zlar:** Marionetka, ip, Chodir xayol, qo'g'irchoq, teatr, sahna, qo'g'irchoqboz, aktyor.

**Abstract:** This article provides information about the performances of the Theater "Chodir xayol" and the puppet controlled by strings, that is, the marionette.

**Key words:** Marionette, string, Chodir xayol, doll, theater, stage, puppeteer, actor.

Bugungi kunda qo'g'irchoq turlarining nomlanishi o'tmishdan ko'ra farq qiladi. Chodir xayol va Chodir jamol teatr ichidagi qo'g'irchoq turlaridan qo'pqopli, simli, marionetka, planshetli qo'g'irchoq turlariga bo'lingan.

"Chodir xayol" teatri mukammal teatr hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqni yasalishi va qo'g'irchoq o'ynatish texnikasi "Chodir jamol"dan farq qiladi. Shuningdek, marionetka qo'g'irchoq turi ham "Chodir jamol" teatriga bog'liq. Marionetka - qo'g'irchoq turi yog'ochdan yasalgan va qo'l, oyog'i harakatga keltirilishi uchun iplar bilan bog'langan bo'ladi. Qo'g'irchoqboz esa iplar o'rnatilgan tayoqcha orqali qo'g'irchoqni o'ynatadi.



Iplar yordamida boshqariladigan (marionetka) qo'g'irchoq turi alohida boshqarish mexanizmiga ega bo'lgan murakkab qo'g'irchoq turlaridan biridir. U qo'li va trostli qo'g'irchoqlardan butunlay farq qiladi. Uning boshqarish mexanizmi iplar orqali sodir etiladi.

Sahna qo'g'irchoq ishlashi uchun bo'sh qoldiriladi. Aktyorlar tomoshabinga ko'rinmagan holda sahnaning yugori qismiga joylashib, qo'g'irchoqdan tayoqchaga (vaga) tortilgan iplar orqali uni harakatga keltirishadi.

Maxsus shu qo'g'irchoq turini boshqarish uchun tayyorlangan tayoqchaga(vaga) o'rnatilgan iplar qo'g'irchoqning har bir xarakatga moyil bo'lgan bosh, qosh, ko'z, kiprik, lab, boyin, yelka, qo'l, bel, oyoq, tizzakabi a'zolariga iplar tortiladi. Uni boshqarayotgan aktyor shu iplar orqali qo'g'irchoq personajining harakterli xususiyatlaridan kelib

chiqgan holda uni maqsadli xarakterga keltiradi. Bu qo'g'irchoq turining afzallik tomoni shundaki, u odam bajara olmagan juda mayda xatti-harakatlarni ham bir yo'la qoyilmaqom gilib bajara olish imkoniyatiga ega.

Sankt-Peterburgda hozirgi kunda aynan shu qo'g'irchoq turi bilan ishlab kelayotgan YE.Demmeni nomidagi «Marionetka» qo'g'irchoq teatrining asoschilaridan biri, uzoq yillar davomida shu tearda regissyor hamda aktyor bo'lib ijod qilgan Yevgeniy Demmeni “jonli odamlar ko'rsatishga godir bo'magan, turli xildagi ajoyib, kishini hayratga soladigan harakatlarni bu qo'g'irchoq turi yengil, oson yo'l bilan ko'rsata olish qobilyatiga egadir”<sup>1</sup>

Marionetka qo'g'irchoq turining o'ziga xos boshqarish texnikasi va texnologiyasi mavjud. Talabalar o'qish jarayonida qo'g'irchoqning ichki va tashqi texnologiyasini nazariy hamda amaliy jihatdan puxta o'zlashtirib olishlari kerak. Obraz yaratish jarayonida persanajning xarakterlik xususiyatlari ochish o'rniga, tanasiga bo'rnatilgan iplarni qaysi birini ishlatishim kerak edi...,-deb o' ylab o'tirmaslik uchun.

1. Aktyorlar qo'g'irchoqni texnik boshqarish yollarini aniq, to'g'ri bajarishi, ya'ni iplar yo'nalishini aniq o' zlashtirishlari kerak.
2. Qo'g'irchoq harakatlanayotgan paytida yerni sezib, maqsadli aniqdardil qadam bosishiga erishmoq lozim.
3. Qo'g'irchoqning harakat yo'nalishi juda aniq bo'lib, tananito g'ri tutish va uni egiluvchanligiga erishishi kerak.
4. Qo'g'irchoq jonli va jonsiz persanajlarning harakatini ma'lum odam, hayvon, parranda, predmetlarning xatti-harakatini aynan o zini takrorlamasdan, balki ularning plastik harakatidagi oziga xoslik yo'nalishlarini topish darkor.
5. Qo'g'irchoqning hamma harakatga moyil a'zolarini birdaniga harakatga keltirmasdan, har birini ishqobiliyatini nazarda tutgan holda, uning ketma-ket, mantiq asosida maqsadli boshqara olishga erishmoqlozim.
6. Qo'g'irchoqlarning tashqi niqobiga monand ichki xarakteriga xos va mos keladigan plastik xatti-harakatlar topish.
7. Qo'g'irchoq persanajning obraz talqinida, uning boshqarish metodikasiga asoslanib, qo'g'irchoqning texnika va texnologiyasini ustalik bilan ishlata olgan holda uning boshqara olish imkoniyatlaridan to'laqonli maqsadga asoslangan holda yo'naltirib, undan to'g'ri foydalana olishiga erishish.
8. Obraz yaratish jarayonida qo'g'irchoq persanajining ijodiy imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishni bilish.
9. Ijodiy maydonchadan kelib chiqqan holda qo'g'irchoq persanajini zamon, makon va vaqt birligini topib, unda uni ishlata olish.
10. Jonli aktyor bilan qo'g'irchoq persanajining ijodiy birligiga erishish.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Maryam Ashurova. A'zamjon Abduxalilov. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2021. 102-bet

<sup>2</sup> Maryam Ashurova. A'zamjon Abduxalilov. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2021. 103-104bet

Azal-azaldan yurtimizda va jahonda marionetka, ya'ni, iplar orqali boshqariladigan qo'girchoq tomoshalari maxsus joy talab etgan va asosan kechqurun tashkil etilgan. Ushbu tomoshalar "Chodir xayol" teatriga mansub bo'lib, uning bosh qahramoni Yo'ldosh Yasovul hisoblanadi. Bu qo'g'irchoq qiyofasi orqali sodda, zahmatkash, inson tomonlari yoritib berilgan. Umuman olganda, marionetka qo'g'irchoq turi "Chodir xayol" teatri bilan bog'liq va o'zining mukammal yasalish va ijro etish texnikasiga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maryam Ashurova. A'zamjon Abduxalilov. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalgimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
6. Chto I kak v teatre kukol - M.: 1980 y. VTO
7. "Istiqlol va milliy teatr" to plami. "Yangi asr avlodi" - T. 2002
8. Qodirov M. "Tomosha san'atlari o'mishda va bugun" - T: "Mumtoz So 2' 2011
9. Qodirov M. "Qo' g'irchoq teatri tarixi" - T., 2010
10. "V professional'noy shkole kukolnika", sbornik statey - L.1979
11. Demmeni Y. "Prizvaniye kukolnik" - L. 1986
12. Yangi davr san'ati: an'anviylik va transformasion jarayonlar - T-2013
13. Yangi davr san'ati: An'anaviylik va transformatsion jarayonlar -T-2013
14. Shaxs ma'naviyatini shakllanishida san'at va madaniyatning roli - T. 2014
15. San' at va madaniyat ta'limi-badiiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuch Toshkent, 2014